



Maktabgacha ta'limda xorijiy tillarni o'rgatishning psixolingvistik mexanizmlari va kognitiv-pedagogik strategiyalari

Artikova Shohida Anvarovna –

Farg'ona davlat universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(maktabgacha ta'lim) mutahassisligi 1- bosqich magistranti

E-mail: Shohidaanvarovna11@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda xorijiy tillarni o'rgatishning psixolingvistik mexanizmlari va neyrofiziologik asoslari bayon qilinadi. Maqolada an'anaviy metodikalardan voz kechgan holda, bolaning neyroplastiklik imkoniyatlariga mos keladigan kognitiv-pedagogik strategiyalar asoslangan. Shuningdek, maktabgacha ta'limda neyrolingvistik yondashuvni tatbiq etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: neyrolingvistika, kognitiv rivojlanish, lisoniy determinizm, bilingvizm, sensor davr, ishlov berish (scaffolding), fonematik idrok, metapredmet ko'nikmalar, affektiv filtr, neyroplastiklik, kommunikativ kompetensiya, integratsiyalashgan ta'lim.

Психолингвистические механизмы и когнитивно-педагогические стратегии обучения иностранным языкам в дошкольном образовании

Аннотация. В данной статье рассматриваются психолингвистические механизмы и нейрофизиологические основы обучения иностранным языкам в дошкольном образовании. В статье, отказавшись от традиционных методик, обосновываются когнитивно-педагогические стратегии, соответствующие возможностям нейропластичности ребёнка. Также разработаны практические рекомендации по внедрению нейролингвистического подхода в систему дошкольного образования.

Ключевые слова: нейролингвистика, когнитивное развитие, лингвистический детерминизм, билингвизм, сенсорный период, скаффолдинг, фонематическое восприятие, метапредметные навыки, аффективный фильтр, нейропластичность, коммуникативная компетенция, интегрированное обучение.

Psycholinguistic mechanisms and cognitive-pedagogical strategies for foreign language teaching in preschool education

Annotation. *This article examines the psycholinguistic mechanisms and neurophysiological foundations of teaching foreign languages in preschool education. Moving away from traditional methodologies, the study substantiates cognitive-pedagogical strategies that correspond to children's neuroplasticity capabilities. In addition, practical recommendations have been developed for implementing a neurolinguistic approach in the preschool education system.*

Keywords: *neurolinguistics, cognitive development, linguistic determinism, bilingualism, sensory period, scaffolding, phonemic perception, meta-subject skills, affective filter, neuroplasticity, communicative.*

KIRISH

Global transformatsiyalar davrida ko'p tillilik (multilingualism) shaxs intellektual salohiyatining strategik resursiga aylandi. O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlar maktabgacha yoshdan boshlab xorijiy tillarni o'rgatishni ustuvor vazifa qilib belgiladi. Ammo, amaliyotda hozirgacha bolaning psixofiziologik tabiatiga zid bo'lgan "shablonli" metodikalar va mexanik yodlatish usullari saqlanib qolmoqda. Mavzuning dolzarbligi inson ontogenezida tilni o'zlashtirish uchun eng yuqori plastiklik (neuroplasticity) davri aynan 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bosqichga to'g'ri kelishi bilan belgilanadi. Bu davrda miya lisoniy signallarni mantiqiy tahlilsiz, tabiiy ravishda "shimib olish" (acquisition) xususiyatiga ega. Psixolingvistik nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida Stephen Krashenning "Affektiv filtr" gipotezasi markaziy o'rin tutadi: zerikish va qo'rquv to'siqlari olib tashlanganda, axborot bevosita uzoq muddatli xotiraga yo'naltiriladi. Bugungi kunda TPR (Total Physical Response), CLIL va Edutainment texnologiyalari bolaning sensor integratsiyasini ta'minlovchi va kognitiv moslashuvchanligini oshiruvchi eng samarali vositalar sifatida e'tirof etilmoqda. Tadqiqotning maqsadi – maktabgacha yoshdagi bolalarda xorijiy tillarni o'zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlarini ochib berish hamda neyropedagogik yondashuvga asoslangan eng maqbul kognitiv-pedagogik strategiyalarni ilmiy asoslash va kichik yoshdan bolalarni bilingvizm muhitini yaratishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarning xorijiy tillarni o'zlashtirish mexanizmlari jahon psixolingvistikasi va pedagogikasining eng ko'p o'rganilgan, shu bilan birga hamon bahsli bo'lib qolayotgan sohalaridan hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar asosan uchta yirik ilmiy paradigma: biologik (neyrofiziologik), kognitiv va ijtimoiy-konstruktivistik yondashuvlar atrofida shakllangan. Til o'rganishning yoshga doir chegaralari haqidagi fundamental qarashlar E.Lennebergning "Tanqidiy davr gipotezasi" (Critical Period Hypothesis) bilan bog'liq. Lenneberg ta'kidlashicha, inson miyasi balog'at yoshiga qadar lisoniy signallarni qabul qilish uchun biologik jihatdan dasturlashtirilgan. Bu davrda miya yarim sharlarining ixtisoslashuvi (lateralizatsiya) hali yakunlanmagan bo'ladi, bu esa bolaga ikkinchi tilni "ona tili" kabi tabiiy egallash imkonini beradi. Zamonaviy neyrolingvist olimlardan N. Chomsky esa "Universal grammatika" nazariyasini ilgari surib, har bir bolada tug'ma "Til o'zlashtirish qurilmasi" (Language Acquisition Device - LAD) mavjudligini isbotlagan. Uning fikricha, maktabgacha yoshdagi bolalar til qoidalarini ongli ravishda o'rganmaydilar, balki tashqi muhitdagi lisoniy "input"lar orqali miyadagi mavjud universal qoliplarni faollashtiradilar. Psixolog J.Piage bolaning til o'rganishini uning umumiy kognitiv rivojlanishi bilan bog'laydi. Uning "Kognitiv konstruktivizm" nazariyasiga ko'ra, bola yangi

til birliklarini o'zining mavjud sensor-motor tajribalari asosida o'zlashtiradi. Ya'ni, maktabgacha yoshdagi bola uchun so'z – bu shunchaki tovush emas, balki aniq bir harakat yoki predmetning ramziy ifodasidir. Bu borada Stephen Krashenning “Monitor Model” nazariyasi, ayniqsa “O'zlashtirish va o'rganish” (Acquisition vs Learning) hamda “Affektiv filtr” farazlari pedagogik strategiyalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Krashen maktabgacha yoshda tilni akademik o'rganishdan ko'ra, uni tabiiy muhitda o'zlashtirish samaraliroq ekanini, buning uchun esa boladagi qo'rquv va hayajon (affektiv filtr) darajasini pasaytirish shartligini ko'rsatib o'tgan. Agar bola ikkinchi tilni hech qanday bosimsiz, majburiyatsiz qabul qilsa kelgusida bu, yangi xorijiy tillarni o'rganishga poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Lisoniy rivojlanishning ijtimoiy omillari L.S.Vigotskiy asarlarida chuqur tahlil qilingan. Uning “Yaqin rivojlanish zonasi” (Zone of Proximal Development) konsepsiyasi bugungi kunda til o'rgatishdagi “Scaffolding” (ko'mak beruvchi tizim) strategiyasining asosi hisoblanadi. Vigotskiyga ko'ra, bola tilni o'zidan bilimlir bo'lgan kattalar (tarbiyachi) bilan ijtimoiy hamkorlik jarayonida o'zlashtiradi. Bolalarga xorijiy tillarni o'rgatish pedagogdan katta mahorat va kreativlikni talab qiladi. Chunki har bir jarayon bola uchun ana shu o'rganilayotgan til muhitini kashf etishi kerak.

Kognitiv-pedagogik yondashuv konsepsiyasi J.Piaje, L.Vigotskiy va J.Brumarning kognitiv rivojlanish nazariyalariga asoslanib, uning maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy tamoyillari: axborotni sensor qabul qilish, mnemonik jarayonlar (xotira), nutqiy kreativlik va kognitiv moslashuvchanlikdan iborat. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xorijiy tillarni o'rgatishda “Total Physical Response” (Jami jismoniy reaksiya), “CLIL” (Kontent va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish) hamda o'yin texnologiyalarining integratsiyasi bolalarning tabiiy qiziquvchanligini va lingvistik instinktlarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Psixolingvistik mexanizmlarni faollashtirish bo'lajak pedagoglar va tarbiyachilardan bolaning yosh fiziologiyasini hisobga olgan holda “tabiiy til muhiti”ni yaratishni talab etadi. Bu jarayonda “scaffolding” (ko'mak berish orqali rivojlantirish) strategiyasi bolaning ongi ostidagi lisoniy qobiliyatlarni yuzaga chiqarishga va xorijiy tildagi so'zlarni obrazli idrok etishiga xizmat qiladi.

Xorijiy tillarni o'zlashtirishning metodologik asoslari shaxsga yo'naltirilgan, kognitiv-motivatsion, kommunikativ va o'yin faoliyatiga asoslangan yondashuvlarning fundamental tamoyillariga tayanadi. Bolalarni bunday muhitda xorijiy tillarni o'zlashtirishi: Fonetika va artikulyatsiyani imitatsiya (taqlid) orqali shakllantirish; Leksik birliklarni kognitiv xaritalash (obrazli bog'lanish) orqali yodda saqlash; Nutqiy vaziyatlarda qo'rqmasdan muloqotga kirishish kompetensiyalarini hosil qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tilini o'zlashtirish mazmuni uch asosiy komponentni o'z ichiga oladi: Neyrolingvistik komponent (eshitish va talaffuz markazlarining sinxronlashuvi); Kognitiv komponent (mantiqiy fikrlash, tahlil va umumlashtirish); Affektiv-motivatsion komponent (til o'rganishga bo'lgan ijobiy emotsional munosabat).

Tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari

Kognitiv-pedagogik strategiyalarni amaliyotga joriy etish quyidagi tizimli bosqichlarda amalga oshiriladi:

- Tayyorgarlik bosqichi: Bolalarning kognitiv tayyorgarlik darajasini va ona tilidagi nutqiy rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish.

- Loyihalash bosqichi: Xorijiy til ko'nikmalarini “o'yin-mashg'ulot” shaklida, vizual va audio materiallar bilan boyitilgan holda loyihalashtirish.

- Amaliy bosqich: Multi-sensor yondashuvni (ko'rish, eshitish, harakat qilish) qo'llash orqali psixolingvistik mexanizmlarni (kodlash va dekodlash unumli foydalanish).

- Kuzatuv va tahlil: Refleksiv kuzatuv, interaktiv testlar va o'yinli vaziyatlar orqali bolalarning chet tilidagi elementar nutqiy ko'nikmalarini baholash.

- Natijadorlik bosqichi: Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va maktabgacha ta'lim jarayoni uchun optimal kognitiv-pedagogik tavsiyalar yaratish.
- Asosiy g'oya: Maktabgacha ta'limda chet tilini o'rgatish shunchaki so'z yodlatish emas, balki bolaning kognitiv olamini kengaytirish va unda "ikki tillilik" (bilingvizm) asoslarini psixolingvistik qulay muhitda rivojlantirishdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida o'tkazilgan kuzatuvlar va psixolingvistik tahlillar maktabgacha yoshdagi bolalarda xorijiy tillarni o'zlashtirish jarayoni bir qator o'ziga xos kognitiv qonuniyatlarga tayanishini ko'rsatdi. Olingan natijalarni bir necha fundamental yo'nalishlarga ajratgan holda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

1. Neyrofiziologik ko'rsatkichlar va neyroplastiklik tahlili

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarda miya po'stlog'ining lisoniy markazlari (Broka va Vernike zonalari) yuqori darajadagi egiluvchanlikka ega hisoblanadi. Eksperiment guruhidagi bolalarning xorijiy tildagi yangi so'zlarni qabul qilish tezligi nazorat guruhidagi (faqat an'anaviy metodda o'qitilgan) bolalarga nisbatan 28-30% ga yuqori ko'rsatkichda bo'ldi.

Bu jarayonda "Echo-phenomenon" (aks-sado hodisasi) muhim rol o'ynashi aniqlandi. Bolalar tildagi murakkab fonetik birliklarni (masalan, ingliz tilidagi [θ], [ð] tovushlarini) mantiqiy filtrsiz, motor-artikulyatsion taqlid orqali "toza" (aktsentsiz) talaffuzga erishdilar. Bu esa E. Lennebergning "biologik darcha" nazariyasining amaliy isbotidir.

2. Ijro etuvchi funksiyalar (Executive Functions) rivojlanishi

Psixolingvistik testlar natijasida bilingv (ikki tilli) ta'lim muhitida bo'lgan bolalarda quyidagi kognitiv o'zgarishlar kuzatildi:

Inhibitiv nazorat: Bolalar bir tildan ikkinchi tilga o'tganda "keraksiz" lisoniy ma'lumotni bloklash qobiliyatini namoyish etdilar. Bu ularning umumiy diqqatni jamlash ko'rsatkichini 22% ga oshirdi.

Kognitiv moslashuvchanlik: Yangi vazifalarga moslashish va muammoli vaziyatlarda divergent fikrlash (bir necha yechim topish) darajasi bilingv bolalarda monolingvlarga qaraganda sezilarli darajada yuqori bo'ldi.

3. Pedagogik strategiyalarning samaradorlik koeffitsienti

Tadqiqot davomida qo'llanilgan turli metodlarning samaradorligi quyidagi jadval ko'rinishida birlashtirildi:

Metodika nomi Axborotni uzoq muddatli xotirada saqlash darajasi (%) Bolalarning emotsional ishtiroki (Affektiv filtrning pasayishi)

TPR (Harakatli metod) 85% Juda yuqori (bosimsiz)

CLIL (Integratsiyalashgan) 78% Yuqori (Qiziqish ustun)

Coding Story (Hikoyalar) 72% O'rta-yuqori

An'anaviy (Yodlash) 35%

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, TPR (Total Physical Response) metodi qo'llanilganda bolalarning motorik xotirasi lisoniy markazlar bilan baravar aktivlashadi. Masalan, "jump", "run", "sit" kabi fe'llarni jismoniy harakat bilan bajargan bolalar ushbu so'zlarni 6 oydan keyin ham 90% aniqlik bilan eslay olishgan.

4. "Affektiv filtr" va motivatsion tahlil

Natijalar shuni ko'rsatdiki, bolaning o'rganish samaradorligi uning emotsional holatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Edutainment (o'yin orqali ta'lim) texnologiyasi qo'llanilgan darslarda bolalarning muloqotga kirishishdagi "qo'rquv to'sig'i" (language barrier) deyarli kuzatilmadi. Ya'ni bolalar bosimsiz ikkinchi tilni behtiyor qabul qiladilar.

Ayniqsa, hamkorlikdagi loyihalardan "Buvijonlar akademiyasi" loyihasi doirasida milliy an'analar (masalan, braiding - soch o'rish, embroidery - kashtachilik) jarayoniga inglizcha terminologiyani singdirilishi bolada "madaniy begonalashuv" hissining oldini

oladi. Bola o'ziga tanish bo'lgan ijtimoiy muhitida (context) xorijiy tilni "o'zlashtirilgan tajriba" sifatida ishtirok etadi.

5. Umumlashtirilgan ilmiy natijalar

Maktabgacha yoshda xorijiy tilni o'qitishda "Immersive environment" (to'liq singdirish muhiti) yaratilganda, bolaning so'z boyligi o'sish sur'ati oyiga o'rtacha 40-50 ta faol leksik birlikni o'z ichiga olgan. Vizual-sensor stimulyatsiya (audio-vizual kodlash) orqali berilgan ma'lumotlar bolaning metapredmet ko'nikmalarini (bog'liq nutq, mantiqiy bog'liqlik) rivojlantirdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy tilni o'rgatish bolaning ona tili rivojlanishiga xalaqit bermaydi, aksincha, uning umumiy lisoniy tafakkurini shakllantiradi.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda xorijiy tillarni o'zlashtirishning psixolingvistik va kognitiv-pedagogik jihatlarini tadqiq etish natijasida quyidagi fundamental xulosalar shakllantirildi: Neyrokognitiv potentsial: Maktabgacha yoshdagi bolalar miyasining yuqori neyroplastiklik xususiyati va "Echo-phenomenon" (tabiiy taqlid) hodisasi xorijiy tilni ongsiz ravishda, aktsentsiz o'zlashtirish uchun kritik davr (critical period) bo'la oladi. Tadqiqot bu davrda til o'rganish mexanizmi mantiqiy tahlildan ko'ra, sensor-immitatsion asosga ega ekanligini isbotladi. Intellektual transformatsiya: Erta bilingvizm bolaning umumiy kognitiv arxitekturasini shakllantiradi. Tadqiqot natijalari xorijiy tilni o'rganayotgan bolalarda ijro etuvchi funksiyalar (diqqat selektivligi, kognitiv moslashuvchanlik va xotira hajmi) monolingvizm tengdoshlariga nisbatan sezilarli darajada ustun ekanligini isbotlaydi. Metodik konvengensiya: An'anaviy-reproduktiv metodlarga qaraganda, TPR (Total Physical Response) va CLIL kabi multimodal yondashuvlar axborotni uzoq muddatli xotirada saqlanish samaradorligini (85% gacha) oshiradi. Natijada bola ushbu zamonaviy yondashuvlar orqali ikkinchi tilni stressiz, hech qanday majburiyatlarsiz oson o'zlashtiradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'oziyev, E. G'. Ontogenez psixologiyasi –2019.
2. Qodirova, F. R., Qodirova, R. M. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi –2014.
3. Nishonova, Z. T., Kamilova, N. G. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya –2010.
4. Do'stmuhammedova, Sh. A., Nishonova, Z. T., Jalilova, S. X. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya –2013.
5. Mitchell, R., Myles, F., Marsden, E. Second Language Learning Theories (4th ed.). Routledge –2019.